

## **OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING KASBIY JISMONIY TAYYORGARLIGI MAZMUNI**

*Mexmonov Ravshan Nabiyeovich*  
*mexmanovravshan@gmail.com*  
*Farg'ona davlat universiteti*

Jismoniy tarbiya amaliyoti, maxsus tadqiqotlar natijalari kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik mazmuni to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirdi. Aniqlanishicha, ushbu tayyorgarlik jarayonida mutaxassisda uning kasbiy faoliyatida kerak bo'ladigan sifatlar va fazilatlar kompleksi muvaffaqiyatli shakllanadi. Bu shug'ullanuvchilarning kasbiy-amaliy tayyorgarlik darajasini oshirishning uchta yetakchi yo'nalishini belgilab olishga imkon beradi. Birinchisi jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining hajmi va umumiy vaqtining oshishi, sport bilan shug'ullanishni faollashtirish bilan bog'liq, ikkinchisi jismoniy tarbiyaning maxsus yo'nalishini kuchaytiradi, uchinchi kasbiy jismoniy tayyorgarlikning ko'proq muhokama etiladigan umumiy hamda maxsus vazifalarini kompleks hal etish bilan bog'liq. Biroq aytib o'tilgan faoliyat mazmuni tomonlarining nisbatlari va dinamikasi to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarni tahlil davomida aniqlay olmadik, bu shug'ullanuvchilarga ta'sir qilishda qo'llaniladigan vositalarga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Sport turlarining asosiy, tayyorgarlik va maxsus mashqlari, milliy harakatli o'yinlar va sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya usullari to'plamidan foydalanish zarurati e'tirof etiladi. Shu sababdan maxsus tashkil qilingan pedagogik jarayonda ularning ahamiyatidan foydalanishga nisbatan turlicha yondashuv diqqatni tortadi.

Maxsus adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, sport fanlari bo'yicha mashg'ulotlar davomida o'quv jarayonida sport mashg'ulotining o'ziga xos qonuniyatlaridan ham foydalaniladi. Ular qisqa muddat ichida talaba yoshlarning zarur darajada jismoniy tayyorgarlikka erishishlariga imkon yaratadi.

Talabalarining yetarli darajadagi jismoniy tayyorgarliklarini oshirishga qaratilgan vazifalar deyarli barcha shakldagi mashg'ulotlarda hal etiladi, bunda harakat qobiliyatlarini rivojlantirish uchun standart mashqlar qo'llaniladi. Kasbga yo'naltirilgan maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish bo'yicha asosiy metodik usullarni aniqlash, ularning real voqyealarga hamda oldinda turgan pedagogik faoliyatga dinamik mosligini e'tiborga olish tamoyiliga asosan amalga oshirilishi kerak.

Yu.Krusevichning nuqtai nazari boshqacha bo'lib, uning e'tirof etishicha, temir yo'l transporti mutaxassislarining kasbiy faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik jarayonida ham tezkor-texnik, ham rahbarlik, ham ma'muriy - ishlab chiqarish vazifalarini bajarishga qodir bo'lgan universal mutaxassisni tayyorlashga yordam beruvchi vositalar va metodlardan foydalanish zarur.

So'nggi vaqtlarda jamiyatda kasbiy faoliyat xususiyati jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Bu o'zgarishlar qayta ishga joylashish va fan hamda texnika sohasidagi ijtimoiy taraqqiyot holatlari bilan bog'liq. Demak, oliy o'quv yurtidagi jismoniy tarbiya jarayonini qayta qurish lozim bo'ladi. U talabalarda aniq bilimlar, faoliyat usullari va ko'nikmalarning shakllanishiga olib kelishi kerak.

A.A.Belkin, A.M.Raxmatovlar 3-4 bosqichlarda talabalarining maxsus kasbiy tayyorgarligi davrida kasbiy jismoniy tayyorgarlik samaradorligini oshirish masalasini o'rgana turib, shunday xulosaga kelganlarki, uni o'quv dasturlari mazmuniga kiritish zarur. Bu yuzaga keladigan shtat va ayniqsa, shtatdan tashqari ishlab chiqarish vaziyatlarini modellashtiruvchi kompleks harakat malakalarini egallashga yordam beradi.

Ko'p yillik tadqiqotlar muhim psixik-jismoniy sifatlarni, harakat malakalarini hamda tiklanish usullarini shakllantirishga yordam beruvchi kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishga imkon yaratdi.

Rossiya Federatsiyasining temir yo'l transporti oliy o'quv yurtlarida 1-5 bosqich talabalarining kasbiy jismoniy tayyorgarlik muammosi chuqur o'rganilgan. Aniqlani-shicha, o'quv jarayoniga kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlikning kiritilishi psixik-jismoniy sifatlarning hamda harakat malakalarining jasurlik, qat'iylik, o'sib boruvchi jismoniy toliqish zamirida o'zini jamlay olish va harakat vazifalarini tez

hal etish, harakatlar hamda mushak kuchlanishlarini kuch, vaqt va fazo parametrlari bo'yicha aniq tabaqalash kabi sifatning rivojlanishiga yordam berdi.

Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarining kasbiy jismoniy tayyorgarlik bo'yicha yetakchi mutaxassislaridan biri sanalgan R.T.Rayevskiy (1985) e'tirof etadiki, talabalarning kasbiy jismoniy tayyorgarlik uchun shug'ullanuvchilarning har tomonlama jismoniy tayyorgarligiga asoslanadigan ma'lum bir tuzilma xosdir. Texnika oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlikning asosiy vazifasi turli xil jismoniy tarbiya va sport vositalari yordamida injenerning kasbga xos muhim sifatleri va fazilatlarini shakllantirish hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya tizimida kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlikning bir necha shaklini aniqlangan, ularning bir necha tamoyilga asosan bir guruhga jamlanishi mumkin - mashg'ulotlar (majburiy va fakultativ), havaskorlik mashg'ulotlari, kun tartibidagi jismoniy mashqlar, ommaviy sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari. Guruhlarning har biri kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlikni amalga oshirishning bitta yoki bir nechta shakllariga ega. Ulardan butun talabalar kontingenti yoki uning bir qismi uchun tanlab foydalanish mumkin. Nazariy bilimlarning ahamiyati juda katta, chunki bu talabalarga o'quv jarayonida jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan zarur kasbiy-amaliy bilimlarni bayon qilish uchun yagona yo'l hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Мамадова, Ф. (2023). Во'ljak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik modeli. ИЖТИМОЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), 266-272.
2. Tursinovich, K.A., Mirzaakhmadovna, M.F., Alijonovich, E.T. (2022). 'Topical issues of pre-university preparation of students in the field of physical culture and sports. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 7, 253-255.
3. Qayumovna, R. M. (2021). Examining and monitoring of the impact of hypo dynamic factors on the state of physical fitness in students. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 3, 40-43.
4. Mehmonov, R., Parpiev, O. (2020). Pedagogical requirements for physical education teachers. Theoretical & Applied Science, (5), 758-761.

#### **YOSHARNI EKOLOGIK TARBIYALASHDA MAKTAB VA OILANING ROLI**

*Mo'minova R.N., Mahkamov G'.M., Hakimova S.O.  
Muminovaranoxon@kspi.uz, setoraxakimova0830@gmail.com  
Qo'qon Davlat pedagogika instituti*

Barqaror rivojlanish uchun ta'limning xalqaro ustuvorliklariga javob beradigan yosh avlodlarda ekologik madaniyatni rivojlantirishga samarali yondashuvlarni asoslashda zamonaviy fan va amaliyotning tobora ortib borayotgan ehtiyoji dolzarb hisoblanadi. Zamonaviy maktab o'quvchilarida ekologik qadriyatlarining ijobiy dinamikasini ta'minlashga imkon beradigan yangi avlod dasturlari va texnologiyalarini ishlab chiqilgan. Bolalarning ekologik ta'limining ahamiyati eng yuqori xalqaro va davlat darajalarida bir necha bor ta'kidlangan, BMT hujjatlarida, milliy ta'lim doktrinasida, umumiy ta'limning federal davlat standartlarida va boshqalarda aks ettirilgan.

YUNESKO ekspertlari va BMTning atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi mualliflari inson va tabiatning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirishning asosiy vositasi sifatida madaniy qadriyatlarni, shu jumladan maqsadli va tizimli ekologik ta'lim va uzluksiz norasmiy ekologik ta'limni rivojlantirish jarayonida shaxsning rivojlanishi uchun tashqi va ichki sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy hayot sohasini ko'rib chiqmoqdalar.

Ekologik ta'lim oilada boshlanadi, shuning uchun ekologik qadriyatlar oila tomonidan berilmasa, oila ekologik ta'lim muammolarini hal qilishda maktab bilan o'zaro aloqada bo'lmasa, shaxsning ekologik madaniyatini, ekologik kompetensiyani, bolalarning ekologik ongini shakllantirish samarali bo'lishi mumkin emas. Zamonaviy global muammolarning kuchayishi